O‘ZBEKISTON DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING STRATEGIK RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Safarova Dilshodaxon Eshmuxammadovna
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya:
Raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish bugungi kunda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida davlat tuzilmalarini raqamlashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqola davlat tuzilmalarining raqamlashtirilishiga oid strategik istiqbollar, muammolar va imkoniyatlarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar. *Elektron hukumat tizimi, raqamlashtirilish, Raqamli infratuzilma, Kiberxavfsizlik, Onlayn xizmatlar indeksi, Telekommunikasiya infratuzilmasi indeksi, Inson kapitali indeksi*

KIRISH

O‘zbekiston davlat tuzilmalarining raqamlashtirilishi – iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur jarayon quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. Davlat xizmatlarini optimallashtirish - raqamli texnologiyalar yordamida xizmatlarning tezkorligi va samaradorligini ta‘minlash.
2. Boshqaruv jarayonlarini shaffoflashtirish - korruptsiyaning oldini olish va ma’lumotlarning ochiqligini ta‘minlash.
3. Fuqarolar va davlat o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish - Elektron hukumat tizimi orqali fuqarolar ehtiyojlariga mos xizmatlar ko‘rsatish.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayoni quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilmoqda:

1. **Elektron hukumat tizimi (e-Government)**:
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali 300 dan ortiq xizmatlar taqdim etilmoqda.
- “Elektron hujjat almashinuvi” tizimi joriy etilib, qog‘ozbozlik kamaymoqda.

2. **Raqamli infratuzilmani rivojlantirish**:
- Davlat axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish ishlari olib borilmoqda.
- Hududlarda internet va mobil aloqa sifatini yaxshilash maqsadida infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda.

3. **Kiberxavfsizlikni mustahkamlash**:
- Davlat ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.
- Maxsus kiberxavfsizlik markazlari faoliyat yuritmoqda.

Jahon mamlakatlarining elektron hukumatni rivojlantirish holatini Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) a’zo davlatlar uchun Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index, EGDI) orqali baholanadi. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi 3 ta tarkibiy indekslarni o‘z ichiga oladi:

1. Onlayn xizmatlar indeksi
2. Telekommunikasiya infratuzilmasi indeksi
3. Inson kapitali indeksi

Elektron hukumat rivojlanish reytingining onlayn xizmatlar indeksida davlatlarning asosan 10 ta milliy veb-saytlar BMT ekspertlari tomonidan baholashidan o‘tkaziladi. Bularga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi portali; Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi portali; Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi portali; Sog‘liqni saqlash vazirligi portali; Iqtisodiyot va moliya vazirligi portali; Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi portali; Davlat soliq qo‘mitasi portali; Davlat bojxona qo‘mitasi portali; Hukumat portali; Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidir.

Telekommunikasiya infratuzilmasi indeksi elektron xizmatlarni yetkazib berish bilan bog‘liq aloqa tarmoqlari infratuzilmasiga taaluqli quyidagi besh asosiy yig‘indisidan iborat. Har bir holatda Xalqaro elektraloqa ittifoqi (International Telecommunication Union, ITU) asosiy manba hisoblanadi. Bu indeks beshta ko‘rsatkichdan, ya’ni 00 kishiga nisbatan internet foydalanuvchilar ulushi, 100 kishiga nisbatan telefon liniyalari ulushi, 100 kishiga nisbatan uyali aloqa foydalanuvchilari ulushi, 100 kishiga nisbatan ajratilgan keng polosali tarmoq ulushi, 100 kishiga nisbatan simsiz keng polosali tarmoq ulushidan iborat.

Inson kapitali indeksi (Human Capital Index, HCI). Inson kapitali indeksi ikkita ko‘rsatkichdan iborat bo‘lib, bu ko‘rsatkich yoshi kattalarning raqamli savodxonlik darajasi hamda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus ta’limni o‘z ichiga olgan yoshlarning raqamli savodxonlik darajasidan iborat.

BMTning elektron hukumat rivojlanish reytingi mamlakatdagi qaror kabul qiluvchi shaxslar uchun kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashninginstrumental vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, Indeks mamlakatlarda davlat idoralarining rasmiy veb-saytlarini rivojlanish mezonlarini baholash bilan bir qatorda, raqamli infratuzilma va ta’lim darajasi kabi kirish xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa davlatlar o‘z aholisi uchun joriy etgan elektron davlat xizmatlari va axborot texnologiyalaridan qanday foydalanayotganini aks ettiradi.

1-jadval

2024-yil uchun Elektron hukumatning rivojlanish indeksi [5]

Davlatlar Jami: 193 ta	**Ball**	**O‘rin**
Daniya	0,98	1
Estoniya	0,97	2
Singapur	0,97	3
Janubiy Koreya	0,97	4
Islandiya	0,97	5
Saudiya Arabistoni	0,96	6
Buyuk Britaniya	0,96	7
Avstraliya	0,96	8
Finlandiya	0,96	9

Niderlandiya	0,95	10
O‘zbekiston	0,80	63

1-jadval ma’lumotlaridan aytish mumkinki, Elektron hukumatning rivojlanish indeksi oxirgi marta 2024-yil holatiga baholangan bo‘lib, 193 ta davlat qatnashgan. Elektron hukumat rivojlanishining maksimal darajasi 0,98 ballga teng bo‘lib, o‘rtacha ball miqdori 0,64 ballni tashkil etadi.

Bugungi kunda elektron hukumatni rivojlantirish darajasiga ko‘ra dunyodagi mamlakatlar reytingida O‘zbekiston mavqei ancha ko‘tarilgan. BMTning Elektron hukumat bo‘yicha 2022 yilgi tadqiqotida O‘zbekiston 18 pog‘ona yuqori o‘ringa ko‘tarilgan va 193 davlat orasida 69-o‘rinni egallagan. 2024-yilga kelib esa, 0,80 ball bilan 63-o‘ringa ko‘tarildi. Bu ham albatta respublikamizda elektron hukumat tizimini jadal rivojlanayotganligini agnlatadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya infratuzilmasi tahlili [8] (yillik)

№	Ko‘rsatkichlar	Birlik	2020	2021	2022	2023	2024
1	Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, yuridik shaxslar	ming birlik	**739,7**	**875,0**	**1555,7**	**1894,3**	**2382,0**
2	Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, jismoniy shaxslar (hududlar kesimida)	ming birlik	**19 241,3**	**22 112,1**	**25 167,9**	**28 166,7**	**29 756,7**
3	Internet tarmog‘iga keng polosali ulanish bo‘yicha abonentlar soni	ming birlik	**1 080,0**	**1 457,5**	**1 840,3**	**2 221,2**	**2 932,0**
4	Internet tarmog‘iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni	ming birlik	**17 946,5**	**20 991,8**	**24 017,6**	**27 087,3**	**28 592,7**
5	100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan shaxsiy kompyuterlar soni	dona	**60**	**63**	**64**	**66**	**73**

Birgina, Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksini yillar davomidagi o‘zgarishlarni tahlil qilsak (2-jadval), Internet tarmog‘iga ulangan yuridik shaxslar soni 2020-yilda 739,7 ming birlikdan 2024-yilga kelib 2382 ming birlikka oshgan. Internet tarmog‘iga ulangan jismoniy shaxslar soni, 2020-yilda 19 241,3 ming birlikdan 2024-yilga kelib 29 756,7 ming birlikka oshgan. Internet tarmog‘iga keng polosali ulanish bo‘yicha abonentlar soni 2020-yilda 1 080 ming birlikdan 2024-yilga kelib 2 932 ming

birlikka oshgan. Internet tarmog‘iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni 2020-yilda 17 946,5 ming birlikdan 2024-yilga kelib 28 592,7 ming birlikka oshgan. 100 ta uy xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan shaxsiy kompyuterlar soni 2020-yilda 60 tadan 2024-yilga kelib 73 taga oshgan.

Yuqoridagi erishilgan yutuqlarga qaramasdan, respublikamizda raqamlashtirish jarayonida duch kelinayotgan muammolar va qiyinchiliklar mavjud:

1. **Moliyaviy cheklovlar**: Raqamli loyihalarni amalga oshirish uchun zarur investitsiyalar yetarli emas.
2. **Kadrlar salohiyatining yetishmasligi**: Axborot texnologiyalari sohasida malakali mutaxassislar yetarli darajada emas.
3. **Texnologik qoloqlik**: Ba’zi hududlarda internet infratuzilmasining rivojlanmaganligi.
4. **Huquqiy baza takomillashuvi zarurati**: Raqamlashtirish sohasida qonunchilik va standartlar hali ham to‘liq shakllanmagan.

O‘zbekistonda raqamli davlat tizimlarini rivojlantirish jarayonidagi muammolarni bartaraf etish ucnun quyidagi strategik taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

1. Raqamli transformatsiya dasturlarini moliyalashtirishni oshirish, ya’ni xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va xususiy sektorni jalb etish orqali raqamli loyihalarni kengaytirish;
2. Kadrlarni tayyorlash va qayta o‘qitish, ya’ni Oliy ta’lim muassasalarida IT yo‘nalishlarini rivojlantirish va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish;
3. Hududlarda texnologik infratuzilmani rivojlantirish, ya’ni Internet qamrovini oshirish va arzonlashtirish, raqamli xizmatlarga qulay sharoit yaratish;
4. Huquqiy bazani mustahkamlash, ya’ni Raqamli xizmatlar va ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha yangi qonunlar va normalarni ishlab chiqish;
5. Xalqaro tajribani o‘rganish va hamkorlik qilish: Rivojlangan davlatlarning elektron hukumat tizimlarini o‘rganish va texnologik yechimlarni mahalliy sharoitga moslashtirish.

O‘zbekistonda davlat tuzilmalarini raqamlashtirish jarayoni mamlakatning umumiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur sohadagi strategik rejalarning muvaffaqiyati hukumatning izchil siyosati, xususiy sektor bilan hamkorlik va raqamli savodxonlikni oshirishga bog‘liqdir. Kelgusida bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar davlat boshqaruvini takomillashtirish va fuqarolar farovonligini oshirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ–358-son Qarori. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Elektron hukumat va raqamlashtirish bo‘yicha yillik hisobotlar.
3. The Fourth Industrial Revolution. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016.

4. Organisation for Economic Co-operation and Development. Digital Government Review Reports. Paris, turli yillar.
5. United Nations. United Nations E-Government Survey 2024. New York, 2024.
6. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)
7. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
9. O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali
10. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – E-Government Survey Reports
11. Jahon banki (World Bank) – Digital Development Reports